

11-SINF. JAHON TARIXI
CHSB-1

I variant
Sinf _____

Sana: _____
O'quvchining F.I.SH. _____

1. "COVID-19" pandemiyasining jahon iqtisodiyotiga ta'siri to'g'ri berilgan javobni belgilang. (Bilish–2,5 ball)

- A) fond birjalarida narxlar keskin ko'tarilib ketdi
B) jahon bozorida neft va oltinning narxi sezilarli pasaydi
C) yuk va yo'lovchi tashish sohalari katta foyda ko'rdi
D) AQSH valyutasi (dollar) xalqaro pul birligi maqomini yo'qotdi

2. Germaniya kansleri berilgan qatorni toping. (Bilish–2,5 ball)

- A) Entoni Bler
B) Jon Meyjor
C) Angela Merkel
D) Fransua Mitteran

3. Quyidagi qaysi davlat Kavkazorti mamlakati hisoblanadi? (Bilish–2,5 ball)

- A) Hindiston
B) Estoniya
C) Tojikiston
D) Ozarbayjon

4. SSSRning parchalanishi natijalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Sobiq sovet respubliklari o'z mustaqil davlatlari qurish yo'lini tanladi;
2. Jahonda liberalizm davri tugab, totalitarizm davri boshlandi;
3. Fuqarolarning iqtisodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi;
4. Demokratik huquq va erkinliklar butunlay bekor qilindi;
5. Ko'p qutbli dunyo davri boshlandi.

- A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 4, 5 D) 1, 3, 4

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga "ha" yoki "yo'q" deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	SSSRning tarqalib ketishi jahon miqyosida kuchlar nisbatiga katta ta'sir ko'rsatdi		
2	Ekologiya muammolarining keskinlashuvi xalqaro barqarorlikka jiddiy xavf sola olmadi		
3	Nyu York va Vashington shaharlarida amalga oshirilgan terroristik aktlar jahon jamoatchiligini terrorizmga qarshi birlashishga undadi		
4	SSSRning parchalanishi natijasida "ikki qutbli dunyo" modeli tashkil topdi		

- A) 1-yo'q, 2-ha, 3-yo'q, 4-ha B) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-ha
C) 1-yo'q, 2-ha, 3-ha, 4-yo'q D) 1-ha, 2-yo'q, 3-ha, 4-yo'q

6. Davlat va unga xos ma'lumot mos berilgan javobni toping. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Ukraina; 2. Belarus Respublikasi; 3. Moldova; 4. Gruziya.

- a) 1991-yil 27-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qilgan;
b) mamlakatdagi ommaviy norozilik chiqishlari "Yevromaydon" nomini oldi;
c) "Atirgullar inqilobi" sodir bo'lgan;
d) Aleksandr Lukashenko mamlakat prezidenti etib saylandi.

- A) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c C) 1-b 2-d, 3-a, 4-c D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) to‘g‘ri berilgan javobni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- A) Qozog‘iston – Qosim Jomart To‘kayev – birinchi prezident etib saylandi
 B) Turkmaniston – Saparmurod Niyozov – umrbod davlat boshlig‘i bo‘ldi
 C) Qirg‘iziston – Kurmanbek Bakiyev – “Atirgullar inqilobi” natijasida hokimiyatga keldi
 D) Tojikiston – Ismoil Rahmonov – 1994-yilgi prezidentlik saylovida g‘olib chiqdi

8. Hozirda mustaqil hisoblangan quyidagi davlatlarni oldin qaysi mamlakat tarkibiga kirganligi asosida moslashtiring. (Qo‘llash – 4,5 ball)

№	Davlat	Davlat
1	Yugoslaviya	Chexiya Respublikasi
2	SSSR	Litva
3	Chexoslovakiya	Makedoniya
4	Serbiya	Kosovo Respublikasi

- A) 2, 3 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 4

9. AQSHda Donald Tramp (a) va Jozef Bayden (b) prezidentligi davriga xos ma‘lumotlarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- 1) “Yangi iqtisodiy falsafa” siyosati amalga oshirildi;
 2) Migratsiya siyosati qayta ko‘rib chiqildi;
 3) Terroristik xavfning kuchayishi uning obro‘cini oshirdi;
 4) “COVID-19”dan keyingi jadal iqtisodiy o‘tish davri bo‘ldi.

- A) a-1, b-3 B) a-2, b-4 C) a-1, b-4 D) a-3, b-2

10. Quyidagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosasi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natija
1	Bolliqbo‘yi Respublikalarida ommaviy namoyishlar boshlandi	Estoniya SSSR tarkibidan chiqdi
2	Chernogoriya Serbiyadan ajralib chiqdi	Yugoslaviya Respublikasi tashkil topdi
3	“Besh kunlik urush” sodir bo‘ldi	Rossiya–Gruziya munosabatlari yomonlashdi

- A) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
 B) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
 C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
 D) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri